TOSHKENT VILOYATI OHANGARON SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 30 - yanvar 18-10-214-Q/23 Ohangaron shahar hokimligi

Ohangaron shahrida 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Shahar hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Shaharda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi—shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish shahar komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan

yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub'ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Shahardagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish shahar hokimi o‘rinbosari J.Baxodirov zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **A. Eshankulov**

Ohangaron shahar hokimining
2023 yil 30 yanvardagi
18-10-214-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ohangaron shahrida transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha shahar komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

F.Abdumalikov - Ohangaron shahar ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i

Komissiya a’zolari:

S.Shoqosimov - Toshkent viloyati transport boshqarmasi sektor mudiri

I.Tursunqulov - Ohangaron tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi

T.Norboyev - Shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i

M.Xasanov “Vatanparvar” tashkiloti Ohangaron USTK boshlig‘i v.b.

Komissiya kotibi:

N.Yuldoshev - shahar IIB YHXB katta inspektori

Ohangaron shahar hokimining
2023 yil 30 yanvardagi
18-10-214-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Ohangaron shahrida 2023-yilda majburiy texnik ko‘rikka taqdim etiladigan avtokorxonalar, ulardagi avtomototransport vositalari soni va texnik ko‘rikka taqdim etish muddatlari

JADVALI

t/r	Avtokorxona nomi	Vazirlik kodi	Korxonadagi transport vositalari soni	Korxonadagi mototrans-port vositalari soni	Tirkama-lar soni	Yarim tirkama-lar soni	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan sana va vaqti	Texnik ko‘rik o‘tqaziladi-gan joy	Izoh
1	Vatanparvar USTK	4864	16				05.03.2023	Korxonada	
2	Ohangaron shifobaxsh x\k	3873	1				07.03.2023	YHXB da	
3	Grand maks leaden mchj	9999	3				07.03.2023	YHXB da	
4	Nigina Mubina fayz mchj	9999	1				07.03.2023	YHXB da	
5	Sulaymon ota x\f	9999	1				07.03.2023	YHXB da	
6	IP Bazis mchj	9999	9				10.03.2023	YHXB da	
7	Shahar elektr tarmoqlari	1013	4				11.03.2023	YHXB da	
8	Ohangaron don AJ	8114	16				11.03.2023	Korxonada	
9	Magnit GP	9999	13				11.03.2023	Korxonada	
10	Gaz ta'minoti AJ	1024	18				11.03.2023	Korxonada	
11	Ohangaron hayoti gazetasi	3573	2				12.03.2023	YHXB da	
12	Gaz to'ldirish shaxobchasi mchj	1024	4				12.03.2023	YHXB da	
13	Ohangaron Omad mchj	9999	2			11	12.03.2023	YHXB da	
14	Ohangaron sement AO	8124	73		2		14.03.2023	Korxonada	
15	Original Gold keramik x\k	9999	20			4	14.03.2023	Korxonada	
16	Terma dom mchj	9999	15				15.03.2023	Korxonada	
17	Sanitariya tozalash mchj	9999	4				16.03.2023	YHXB da	
18	Ohangaron aloqa kurilish x\k	9999	9		1		16.03.2023	YHXB da	

19	Ohangaron shifer AJ	9999	13				16.03.2023	Korxonada	
20	Ohangaron Mubinabonu fayz x\k	9999	1				16.03.2023	YHXB da	
21	Ohangaron Turon baraka	9999	6				16.03.2023	YHXB da	
22	Bekdil x\apteka	3873	3				19.03.2023	YHXB da	
23	Ohangaron Avtokompressor mchj	9999	2				19.03.2023	YHXB da	
24	Ohangaron Lyuks mchj	9999	1				19.03.2023	YHXB da	
25	SP “Rubber Texnikal Produkts”	9999	11				19.03.2023	Korxonada	
26	“Ohangaron Qandolat” o/k	9999	1				19.03.2023	YHXB da	
27	Ohangaron Muruvvat uyi	3873	1				19.03.2023	YHXB da	
28	“Yevropa Klassik” MChJ	9999	4				21.03.2023	YHXB da	
29	“Ohangaron Shoxrux fayz RSU-3”	9999	2				21.03.2023	YHXB da	
30	“Gulilola” MChJ	9999	2				22.03.2023	YHXB da	
31	“Hamkor Nur Savdo” MChJ	9999	2				22.03.2023	YHXB da	
32	“Ohangaron shahar sharob savdo”	9999	8				22.03.2023	YHXB da	
33	“Xusnoraxon” MChJ	9999	1				22.03.2023	YHXB da	
34	“Qo‘rg‘on Non” MChJ	9999	2		1		23.03.2023	YHXB da	
35	Development Partners MChJ	9999	2		1		23.03.2023	YHXB da	
36	“Asfaltbeton” mchj	9999	5				26.03.2023	YHXB da	
37	“Ohangaron E’zoz” x/k	9999	1				26.03.2023	YHXB da	
38	“Ohangaron Muazzamxon” x/k	9999	1				28.03.2023	YHXB da	
39	Ohangaron shahar hokimiyat	1005	6				28.03.2023	YHXB da	
40	Ohangaron sanoat ta’mirlash	9999	1				28.03.2023	YHXB da	
41	Alo denta lyuks	3873	1				28.03.2023	YHXB da	
42	Pokizaxon x/k	9999	1				28.03.2023	YHXB da	

43	Temir ota x/k	9999	3				29.03.2023	YHXB da	
44	Komfort furniture MChJ	9999	5				31.03.2023	YHXB da	
45	Azizbek Ohangaron savdo MChJ	9999	5			4	01.04.2023	YHXB da	
46	Ohangaron Trans lyuks mchj	9999	10				01.04.2023	Korxonada	
47	Leader trade business	9999	1				02.04.2023	YHXB da	
48	Yong'in xavfsiz	8354	2				02.04.2023	YHXB da	
49	Ishchi kiyim x\k	9999	3				02.04.2023	YHXB da	
50	Samariddin stroy business mchj	9999	1				02.04.2023	YHXB da	
51	Xalq ta'lim bo'limi	4423	2				02.04.2023	YHXB da	
52	Li da metal texnalogii mchj	9999	3				02.04.2023	YHXB da	
53	Run tong metal industrial mchj	9999	4				07.04.2023	YHXB da	
54	Diyor best trans mchj	9999	2				07.04.2023	YHXB da	
55	Ohangaron taksomator mchj	9999	1				08.04.2023	YHXB da	
56	Happi tvins mchj	9999	1				08.04.2023	YHXB da	
57	Dehqon lyuks d\x	6464	2				09.04.2023	YHXB da	
58	Jasur golden star	9999	1				09.04.2023	YHXB da	
59	Uzbektelekom AK	3573	1				09.04.2023	YHXB da	
60	Ohang yo'l foydalanish korx	9999	20			1	11.04.2023	Korxonada	
61	Ohang yevro standart mchj	9999	5				11.04.2023	YHXB da	
62	Muxammad inter biznes mchj	9999	1				11.04.2023	YHXB da	
63	Mobil cinema x\k	9999	1				11.04.2023	YHXB da	
64	Selena silver mchj	9999	1				12.04.2023	YHXB da	
65	Yevropa plyus klassik mchj	9999	1				12.04.2023	YHXB da	
66	Ohang semremont mchj	9999	1				15.04.2023	YHXB da	

67	Ohang kapital savdo mchj	9999	2				15.04.2023	YHXB da	
68	Ohang Navruz mchj	9999	4				15.04.2023	YHXB da	
69	Bobil x\k	9999	1				16.04.2023	YHXB da	
70	Dezinfeksiya stansiyasi	3873	1				16.04.2023	YHXB da	
71	Art mebel klass mchj	9999	1				16.04.2023	YHXB da	
72	Lochin asbob uskuna x\k	9999	1				16.04.2023	YHXB da	
73	Ohang Matonat mchj	9999	2				16.04.2023	YHXB da	
74	Ohang Maftuna x\k	9999	1				18.04.2023	YHXB da	
75	Yevropa klassik mchj	9999	3				18.04.2023	YHXB da	
76	Muzaffar kurilish mchj	9999	1				19.04.2023	YHXB da	
77	Ohang Saxovat uyi	3873	1				19.04.2023	YHXB da	
78	Ohang Elegant biznes x\k	9999	3				20.04.2023	YHXB da	
79	Inter partnyor mchj	9999	1				20.04.2023	YHXB da	
80	Ohang Diyora farm	3873	2				20.04.2023	YHXB da	
81	Xulkar baraka savdo mchj	9999	1				23.04.2023	YHXB da	
82	Trend tex mchj	9999	2				23.04.2023	YHXB da	
83	Ohang Medikal servis mchj	9999	1		1		23.04.2023	YHXB da	
84	Ohangaron qurilish mchj	9999	8				24.04.2023	YHXB da	
85	Linplast	9999	1				25.04.2023	YHXB da	
86	Suvoqova	9999	6				25.04.2023	YHXB da	
87	Karim - Nur kurilish x/k	9999	1				25.04.2023	YHXB da	
88	Ohangaron Umidjon fayz x/k	9999	2				25.04.2023	YHXB da	
89	Soliq inspeksiyasi	8114	1				28.04.2023	YHXB da	
90	Ohangaron Kadastr	1005	1				28.04.2023	YHXB da	
91	Top servis mchj	9999	6				29.04.2023	YHXB da	
92	shahar YXPTFK	7304	4				29.04.2023	YHXB da	
93	Ohangaron SES	3873	3				30.04.2023	YHXB da	

94	Pride group mchj	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
95	Tras ipex Logistika mchj	9999	25			4	02.05.2023	Korxonada	
96	Adolatga e'tiqod Advokatlik byuro	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
97	Aylin gida sanayi kompany	9999	2				02.05.2023	YHXB da	
98	Ohangaron Mamura savdo mchj	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
99	Umr – Gultoji x\k	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
100	Ohangaron smak savdo o\k	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
101	Ohangaron Alimardon mchj	9999	1				02.05.2023	YHXB da	
102	Tibbiy ko'rik x\k	9999	1				03.05.2023	YHXB da	
103	Zamov magnat quruvchi mchj	9999	1				06.05.2023	YHXB da	
104	Oybuloq agro nur o\k	9999	1				06.05.2023	YHXB da	
105	Beton-BRMU mchj	9999	1				07.05.2023	YHXB da	
106	Ohangaron Xrizotil mchj	9999	1				07.05.2023	YHXB da	
107	Tejamkor biznes mchj	9999	1				07.05.2023	YHXB da	
108	Marfer IChK	9999	1				07.05.2023	YHXB da	
109	Blaskchina golden road mchj	9999	1				09.05.2023	YHXB da	
110	Tialbodos mchj	9999	1				09.05.2023	YHXB da	
111	Renessans progress x\k	9999	1				10.05.2023	YHXB da	
112	Farogat x\f	9999	2				10.05.2023	YHXB da	
113	Kornet remont mchj	9999	1				11.05.2023	YHXB da	
114	Dariya x\k	9999	1				14.05.2023	YHXB da	
115	Charos zavki mchj	9999	1				14.05.2023	YHXB da	
116	Agrobank	5054	1				16.05.2023	YHXB da	
117	Ipoteka bank	5054	13				10.06.2023	Korxonada	
118	Xalq bank	5054	2				12.06.2023	YHXB da	
119	Qishloq qurilish bank	5054	2				18.06.2023	YHXB da	
	Jami		**486**		**6**	**24**			